

## YOSH YENGIL ATLETIKACHILARNI MA'NAVIY JIHATDAN TARBIYALASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10156020>

**Alim Nazimov**

*Namangan davlat universiteti o'qituvchisi*

### **Anottatsiya**

*Ushbu maqolada yosh yengil atletikachilarning ma'naviy jihatdan tarbiyalash haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.*

### **Kalit so'zlar**

*Ilm-fan, texnika, ijtimoiy, iqtisodiy, jismoniy tarbiya, sport, yengil atletika, fol'klor, mumtoz, doston, ertak, rivoyat, maqol, ma'naviyat.*

Hozirgi kunda mamlakatimizda, ilm-fan, texnika, ijtimoiy, iqtisodiy, gumanitar yo'nalishlar xususan, jismoniy tarbiya va sport sohasi jadallik bilan rivojlanib borayotgani hech kimga sir emas. Mazkur sohaga hukumat hamda davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarni jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, aqlan salohiyatli qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Yurtimizda sportga bo'lgan e'tibor juda yuqori, sababi vatanimiz uchun doimo kelajagi porloq, har tomonlama yetuk yosh avlod kerak. Har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalashda esa jismoniy tarbiya va sportning o'rni hamda sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot usullarining roli kattadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi<sup>85</sup>, hamda "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori<sup>86</sup>, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmonida<sup>87</sup> va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda

<sup>85</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сон

<sup>86</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги "Олий таълим тизimini янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПК-2909-сон қарори

<sup>87</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги "Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5924-сон фармони

belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ushbu ilmiy ish muayyan darajada xizmat qiladi.

So'nggi o'n yillikda jahon sporti va uning tarkibi qismi bo'lmish O'zbekiston sporti hayotida kuchli, ma'naviy-ruhiy buhronlar yuz berdi.

O'z-o'zidan ravshanki, bu kabi muammolar sportchilar ma'naviyatidagi bo'shliq bilan chambarchas bog'liq. Ochiq aytish kerakki, sportchilardagi ma'naviyatsizlik va natijani har qanday yo'l bilan qayd etishga intilish sportdagi adolat tamoyillariga jiddiy salbiy ta'sir ko'satmoqda. Shuning uchun ham ayni muammolar bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar olib borish shu kundagi dolzarb masaladir.

Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir<sup>88</sup>.

Bizning nazarimizda, "ma'naviyat" tushunchasi o'rganilayotgan ob'ekt nuqtai nazaridan ham individual, ham ijtimoiy xususiyatni namoyon eta oladi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda qayd etish lozimki, yosh yengil atletikachilarda ma'naviyatni shakllantirish uzoq muddatli, tizimli va izchil yondashuvni talab etuvchi pedagogik faoliyat jarayonidir. Bu jarayon barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy maqsadni amalga oshirish borasidagi yaxlit jarayonning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Pedagogik yo'nalishlarda tashkil etiladigan tadqiqotlarning asosida o'rganilayotgan muammoning amaliyotdagi mavjud holatini o'rganish, qo'lga kiritilgan dalillarni tahlil etish, muayyan xulosalarga kelish, shuningdek, chiqarilgan xulosalar asosida yagona muammoning umumiy holatiga baho berishga yo'naltirilgan amaliy faoliyat alohida o'rin tutadi.

Ushbu ilmiy maqola mavzusi ham sportchilar hayotida ko'zga tashlanayotgan ma'naviy-ruhiy muammolarni bartaraf etishning bir imkoni va uning ayrim jihatlarini tadqiq qilish uchun belgilandi. Hozirgacha ayni mavzu kompleks tarzda ilmiy tadqiq qilinmagan va shuning uchun ham ilmiy ish mavzusi ham ilmiy o'rganilish nuqtaiy nazaridan, ham hayot o'rtaga qo'yayotgan muammolarni tadqiq qilish jihatidan nihoyatda dolzarbdir.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida, Namangan shahridagi va Namangan tumanidagi 1- Bolalar va o'smirlar sport maktabi (BO'SM)ning yengil atletika sport turi bilan shug'ullanuvchi sportchilarni tanlab olindi. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning umumiy soni 128 tani tashkil qiladi.

<sup>88</sup> I.A.Karimov. Ma'naviy yuksalish yo'lida. Toshkent, "Ma'naviyat" 2008.- 18 bet

Tajriba boshida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari quyidagicha bo'ldi: Respondent sportchilarda ma'naviyatning shakllanganlik darajasini o'rtacha koefitsenti:

T.r	Guruhlar	Tajriba avvalida			Koeffitsent
		Yuqori	O'rta	Past	
1.	Tajriba n <sub>1</sub> =64	8	10	46	
2.	Nazorat n <sub>2</sub> =64	6	14	44	

Tajribani avvali yakunlangach yosh yengil atletikachilarning ma'naviyatini rivojlantirish maqsadida quyidagi adabiyotlar ishlab chiqildi:

Xalq og'zaki (Folk'lor) ijodi namunalari va ularni sportchilarga tafsiya etilgan muddati				
Dostonlar	Ertaklar	Rivoyatlar	Maqollar	Afsonalar
Sentyabr-oktyabr	Noyabr-dekabr	Yanvar-fevral	Mart-aprel	May-iyun
Iyul-avgust				
Takrorlash hafta davomida	Takrorlash hafta davomida	Takrorlash hafta davomida	Takrorlash hafta davomida	Takrorlash hafta davomida

Mumtoz adabiyot namunalari va ularni sportchilarga tafsiya etilgan muddati			
1	Farhod va Shirin	Yil davomida	Takrorlash hafta davomida
2	Bado'el ul-faqoe	Yil davomida	Takrorlash hafta davomida
3	Boshqa adabiyotlar	Yil davomida	Takrorlash hafta davomida

Zamonaviy adabiyot namunalari va ularni sportchilarga tafsiya etilgan muddati				
Yulduzlar mangu yonadi	Ot kishnagan oqshom	So'nggi bekat	O'zbek polvonlari	She'rlar
Sentyabr-oktyabr	Noyabr-dekabr	Yanvar-fevral	Mart-aprel	Yil davomida
Iyul-avgust				
Takrorlash hafta davomida	Takrorlash hafta davomida	Takrorlash hafta davomida	Takrorlash hafta davomida	Takrorlash hafta davomida

Tajriba so'ngida tafsiya etilgan adabiyotlarni o'zlashtirgan sportchilarda o'tkazilgan so'rovnoma natijalari quyidagicha bo'ldi:

Respondent sportchilarda ma'naviyatning shakllanganlik darajasini o'rtacha koeffitsenti

T.r	Guruhlar	Tajriba so'ngida			Koeffitsent
		Yuqori	O'rta	Past	
1.	Tajriba n <sub>1</sub> =64	30	26	8	
2.	Nazorat n <sub>2</sub> =64	12	16	36	

Yosh yengil atletikachilar bilan so'rovnoma orqali kitobxonlik madaniyatini shakllanganlik darajasi va kitobga bo'lgan munosabatlari tadqiqot boshida quyidagi edi va kitobxonlikni o'zida mujassam etgan yangi ishlab chiqilgan ma'naviy ma'rifiy reja asosida o'tkazilgan tadbirlar va tavsiya etilgan badiiy adabiyot namunalari mutolaasi natijasida ko'rsatkichlar keskin oshganini ko'rishimiz mumkin. Demak, yuqorida olib borgan tadqiqot ishimiz o'z samarasini berdi.

**Xulosa** qilib aytganda o'tkazilgan tadqiqotimiz natijasi ijobiy tomonga yo'naldi. Yosh yengil atletikachilarda ma'naviy tomonga o'sish kuzatildi. Tadqiqotimiz boshlanish jarayonida sportchilardagi xolat o'ta passif darajada edi. Biz talqin qilgan ilmiy izlanishlar, sportchilarga taklif qilgan adabiyotlarimiz yosh yengil atletikachilarning ma'naviyatini shakllanishiga alohida turtki bo'ldi. Buni isboti yuqoridagi olib borilgan sotsiometrik tekshiruvlarda namoyon bo'ldi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПК-2909-сон қарори
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5924-сон фармони
4. I.A.Karimov. “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch!”. Toshkent, Ma'naviyat -2008.- 18 bet

## ILOVALAR

### Ilova №1

### Yosh yengil atletikachilarni ma'naviy jihatdan tarbiyalashda DTS bo'yicha berilgan asarlar ro'yxati.

A.Qahhor. "Bemor"
E.Vohidov. "O'z begim qasidasi"
O'.Xoshimov. "Urushning so'ngi qurboni"
Turob To'la. "Do'nan" (Yetti zog'ora qissasi)
X.To'xtaboyev. "Sariq devni minib"
Janni Rodari. "Xurishni eplolmagan kuchukcha"
Muqimiy. "Tanobchilar"
Odil Yoqubov. "Muzqaymoq"
Said Ahmad. "Sobiq", "Qoplon"
Musa Jalil. "Ishonma" she'ri
Alisher Navoiy. "Mahbub-ul-qulb"
Gulxaniy. "Zarbulmasal"
Avaz O'tar. "Til" she'ri
Abay. "Nasihatlar kitobidan"
Zulfiya. She'rlari
Primqul Qodirov. "Yulduzli tunlar"
Tog'ay Murod. "Yulduzlar mangu yonadi"
Ibroyim Yusupov. "Qadrdon so'qmoqlar" she'ri
Abdulla Qodiriy. "Mehrobdan chayon"
Abdulla Qahhor. "O'g'ri, "Dahshat"
H.H.Niyoziy. "Dardiga darmon istamas"
Saida Zunnunova she'rlari
Shuhrat. "Mardlik afsonasi" ballada
Rasul Hamzatov she'rlari
Asqad Muxtor she'rlari
Mirmuhsin. "Me'mor" romani
O'lmas Umarbekov. "Qiyomat qarz"
Chingiz Aytmatov. "Oq kema"
"Ravshan" dostoni
Alisher Navoiy "Sab'ayi sayyor" dostoni
Jahon Otin Uvaysiy. G'azal, Chiston
Zavqiy she'rlari
Maxtumquli she'rlari
Cho'lpon she'rlari
Mirtemir she'rlari
Xayriddin Saloh she'rlari

Ernest Seton Tomson. "Yovvoyi yo'rg'a"
Said Ahmad. "Qochoq", "Ufq"
Muhammad Yusuf she'rlari
Xalq og'zaki ijodi "Kuntug'mish" dostoni
Y.H.Xojib. "Qutadg'u bilig"
Lutfiy g'azallari
Alisher Navoiy g'azallari
Nodira g'azallar
A.Fitrat. She'rlar. "Mirrix yulduzga", "O'gut", "Go'zalim bevafo gulistonim"
G'afur G'ulom. "Sog'inish", "Vaqt" she'rlari
Maqsud Shayxzoda. "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi
Usmon Nosir. "Nil va Rim"
Asqad Muxtor. "Chinor" romani
Ozod Sharoiddinov. "O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan"
To'ra Sulaymon she'rlari
Fuzuliy g'azallari
Robindranath Thokur. "Nur va soya"
Sergey Yesenin she'rlari

## Ilova №2

### Yosh yengil atletikachilarni ma'naviy jihatdan tarbiyalashda

#### Mustaqil o'qish uchun berilgan asarlar ro'yxati.

O'quv dastur	B.Xolmirzayev. "Yosh vatanparvar sportchi" to'garagi  "Yosh yengil atletikachilarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash"
O'quv qo'llanma	M.Quronov. "Bolam baxtli bo'lsin desangiz"
Monografiya	M.Quronov. "Milliy tarbiya va yoshlar"
Risola	M.Quronov. "Milliy tarbiya"
She'riy to'plam	B.Xolmirzayev. "Quvonchimsan, O'zbekistonim!" 1. O'zbekiston

	<ol style="list-style-type: none"> <li>2. Bu yurt</li> <li>3. Vatanim</li> <li>4. Quvonchimsan, O'zbekistonim!</li> <li>5. Shukrona</li> <li>6. Onadur</li> <li>7. Orzu</li> </ol>
Hikoyalar	B.Xolmirzayev. "Yoniq qalb sadosi"
She'riy to'plam	<p>B.Xolmirzayev. "Shijoat"</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ota onam duosi</li> <li>2. Madhiya</li> <li>3. Muhabbat</li> <li>4. Ustozlar</li> <li>5. Do'stlik</li> <li>6. Kelajak</li> <li>7. Nomus</li> </ol>
She'riy to'plam	<p>B.Xolmirzayev. "Munavvar yo'llarim"</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yurt oshig'i</li> <li>2. Ey, Vatan</li> <li>3. Alisher Navoiyga o'xsha</li> <li>4. Vatan madhi</li> <li>5. Vatan degin</li> <li>6. Boborahim Mashrabga</li> <li>7. Sarhadlarga</li> <li>8. Sharqni go'zal ayoli</li> </ol>
She'riy to'plam	<p>B.Xolmirzayev. "She'riyat everesti"</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yangi O'zbekiston</li> <li>2. She'riyat everesti</li> <li>3. Bosh qomus qasidasi</li> <li>4. Vatan himoyasi</li> <li>5. Bayroq o'zi nima?</li> <li>6. Namangan fahriyasi</li> <li>7. Vatanim</li> <li>8. Yoshlar madhiyasi</li> <li>9. O'zbekiston Yoslari</li> <li>10. Sportchi qizga</li> <li>11. Qat'iyat</li> </ol>
She'riy to'plam	<p>B.Xolmirzayev. "Tuyg'ular tarannumi"</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Oliy saodat</li> <li>2. Volidam</li> <li>3. Tuyg'u va tana</li> <li>4. Shoir</li> <li>5. Meni eslab turgin ey ona xalqim!</li> </ol>

	6. Usmon Nosirga
Xrestomatiya	M.Sulaymonov, B.Xolmirzayev. "Badiiy asarlarda sport"